


## 2019 yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdag'i xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'limganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtida viloyatda 15,9 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 9,5 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning jami korxona va tashkilotlar sonidagi ulushi 59,6 % ni tashkil etdi.

### 2019 yil 1 may holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyligi sonining 6,4 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 may holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,0 % tashkil etdi.

### **2019 yil 1 may holatiga xizmatlar sohasiga jalgan, kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (20,4 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 may holatiga xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha tarkibi, %**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,1 % ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1161,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 120,0 % ni tashkil etdi.


### 2019 yil yanvar-aprel oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019 yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 265,7 mlrd. so'mga oshdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (111,6 mlrd. so'm), savdo xizmatlari hajmi (80,4 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (18,4 mlrd. so'm), ta'lim sohasidagi xizmatlar (16,6 mlrd.so'm), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (8,5 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.

### 2018-2019 yil yanvar-aprel oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 319,5 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 176,1mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 116,5 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 66,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1161,7</b>	<b>120,0</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	60,9	104,3
moliyaviy xizmatlar	228,1	193,2
transport xizmatlari	194,5	100,8
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	186,3	100,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	36,0	111,5
savdo xizmatlari	399,9	111,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	31,5	105,0
ta'lif sohasidagi xizmatlar	55,1	134,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	16,9	117,1
ijara xizmatlari	25,6	100,6
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	31,8	101,2
shaxsiy xizmatlar	35,3	100,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	16,3	178,9
boshqa xizmatlar	29,8	109,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (193,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (178,9 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (134,9 %), sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (117,1 %), kabi xizmat turlarida qayd tildi.


### 2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (100,1 %), ijara xizmatlari (100,6 %), transport xizmatlari (100,8 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismigan yuqorisini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-aprel oylarida uning ulushi 34,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlar (19,6 %), transport xizmatlari (16,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) egallaydi.

**2019 yil yanvar-apreloyalarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi %**




2019 yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlari hajmi 399,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 34,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 83,0 % ni tashkil etadi.



Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,4 % ga yetdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,6 % ni tashkil qiladi.


Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 228,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 193,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (93,2 %) etakchilik qilmoqda

### 2019 yil yanvar-aprel oylarida

#### moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2019 yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 55,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 134,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 36,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish sur'ati 111,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 3,1% ga yetdi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,7 % ga to'g'ri keladi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har yilda o'sishi kuzatilmoqda. 2019 yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 857,2 ming so'mga teng bo'lib o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 117,5 % tashkil etdi.O'tgan yilning shu davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 675,0 ming so'mni tashkil qilgah. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 182,2 ming so'mga oshdi.

### Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

**72-222-79-69**

**71-230-83-58**